

**O‘TKIR HOSHIMOVNING DUNYONING ISHLARI QISSASIDA OT SO‘Z
TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

Sadullayeva Dilbar Murat qizi
O‘zDJTU 4-kurs 2119-guruh talabasi
dilbarsadullayeva510@gmail.com

Annotasiya:

Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning „Dunyoning ishlari asaridagi ot so‘z turkuminining uslubiy xususiyatlari ya’ni hikoyalardagi otlarning subyektiv baho shakllari, ko‘plik qo‘shimchasining nutqdagi uslubiy vazifalari, kelishik qo‘shimchalarining boshqa kelishik qo‘shimchalari va ko‘makchilar bilan sinonimlik holatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Ot, uslub, kelishik, ko‘plik, ko‘makchi.

Introduction

O‘tkir Hoshimovning „Dunyoning ishlari“ asari badiiy uslubning yorqin namunasi bo‘lib, unda yozuvchi til va uslubiy xususiyatlarini xalqona ruhda va falsafiy mushohada bilan uyg‘unlashtirgan va shu bilan birga insoniy kechinmalarini chuqur ifodalash orqali hayotning chigal va kutilmaganda sodir bo‘lgan voqealarni tasvirlagan. Shu sababli o‘quvchiga estetik zavq va hayotiy zavq ulashadi.

Uslub talabiga binoan ot so‘z turkumidagi so‘zlar turli ma’no va shakllarda qo‘llanishi mumkin. Ya’ni bunda otlar boshqa so‘z turkumiga o‘tishi, funksiyaviy shakllar yasalishi, kelishik qo‘shimchalari vositasida turlanishi uning uslubiy imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Badiiy adabiyotda va oddiy so‘zlashuvda shu kabi otning uslubiy xususiyatlaridan foydalanganda yaqqol sezilib turadi va nutqning jozibadorligini ta’minlashga, jumladan ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Ko‘plik qo‘shimchasining uslubiy xususiyatlari.

Quyidagi gaplarda -lar qo‘shimchasi mavhum otlarga va insonning juft a’zolariga qo‘shilib ma’noni kuchaytirgan: „Hoy, ehtiyot bo‘l, adangning jahllari yomon“, deb shunchalik uqtirib qo‘yganki, otamizni ko‘rishimiz bilan hammamiz yuvosh tortib qolardik. („Qanoat“); Aylanib-o‘rgilib, Toyirjonni bag‘rilariga bosib emizdilar. („Toy“); U baquvvat qo‘llari bilan meni mahkam quchoqlab olgan, yoshli ko‘zlari bilan qayta-qayta ko‘zimga termilib qarar, nuqul o‘par edi. („Opamni topib oldim“).

Kuchaytirilgan va kinoya shaklda ifodalanib kelgan: – Xah, onamni so‘kkan tillaring tanglayingga yopishgur! Aybni menga to‘nkaydi: tiling bir qarich, deydi. Voy, tilimni gapirgan tillaring jodida qiyma-qiyma bo‘lsin-a.(„Qanoat“). Ko‘p narsa mantiqan kuchli bo‘lganligi uchun ushbu gapdagi kuchaytirish -larning «ko‘plik» ma’nosiga bog‘liq. Aslida til odamda bitta bo‘lib, bu gapda uni kuchli qilib ko‘rsatish maqsadida til so‘ziga -lar qo‘shimchasi qo‘shilgan. Qarindoshlikni bildiruvchi shaxs otlariga qo‘shilib **hurmat** ma’nosini ifodalash uchun ishlatilgan: – Poshsha oyimlarni ko‘rgani keldim! – dedi bahaybat qomatiga uncha mos

kelmaydigan alpozda muloyim jilmayib. („Toy“); – Ovsinim kuyov bo‘lmishning onalari! – Atlas ko‘ylakli ayol jilmaydi.(„Sovchilar“).

Jamlash ma’nosini bildirib kelgan – Yo‘q, dadam xaltasiga qo‘l suqqan edi, bu safar ukamning sovg‘asi chiqdi. Dengizchilar kiyadigan ko‘ylak!; – Injenerlar ahmoqmas, sen ahmoqsan! – dedi jingalak sochlarini silkitib; „Qo‘yavering, – derdi u yupatib, – qizlarning shunaqa noz-firog‘i bo‘ladi. Nimaga noz qilayotganini o‘ziyam bilmaydi. Siz indamay turavering, bir kuni o‘zi bosh egib keladi...“ („Xiyonat“); Lo‘lilar haqida shunaqa gaplar eshitgan edikki, nomi qulog‘imizga chalinishi bilan sichqonning ini ming tanga bo‘lib ketar edi.(„Mening Acha xolam“).

Shundan ko‘rinib turibdiki, -lar qo‘shimchasining har xil gapda har xil ma’noda kelishi og‘zaki va yozma nutqni yanada ta’sirchan va jonli qiladi. Shuningdek, undan she’riy va badiiy asarda foydalanganda, uning yanada ma’nodorligini, ta’sir doirasini oshiradi.

Kelishik qo‘shimchalarining uslubiy vazifalari va ko‘makchilar bilan sinonimligi

Tushum kelishigi

Tushum kelishigi chiqish kelishigi bilan sinonimlikni hosil qilgan: Oymoma esa bu sehrli qo‘shiqni/qo‘shiqdan yana bir eshitgisi kelgandek, muallaq to‘xtab qolar, yulduzlar o‘ychan ko‘zlarini tikib, muloyim boqib turishar, onam ertak aytar edi. („Oq, oydin kechalar“).

Jo‘nalish kelishigi bilan sinonim bo‘lib kelgan: – Bular hammasi yaxshi-yu, Xo‘janing bir odatini /odatiga tushunolmasdim. („Xo‘ja“).

Ayrim hollarda tushum kelishigi belgisiz qo‘llanib, bosh kelishik shaklida ham ishlatilgan. Masalan, **suvni** ichmoq – tushum kelishigida, **suv** ichmoq– bosh kelishikdagi shaklida qo‘llangan.

Toshlar orasiga kirib g‘oyib bo‘lgan baxtsiz qizcha yildan-yilga qo‘shiq/qo‘shiqni aytardi. („Oq, oydin kechalar“); Bilmadim, ehtimol o‘sha oq, oydin kechalarda Onam ilk bor qo‘limga qalam/qalamni tutqazgandir. („Oq, oydin kechalar“); Aslida suv/suvni sepish unchalik qiyin emas. („Ikki Afsona“); Bahorda hujraning tomiga chiqib varrak/varrakni uchirayotgan ekan, varrak havolagan sayin qiziqib ketib ipni torta-torta tisarilib boribdi-yu, tomndan chalqanchasiga yiqilib tushibdi.(„Mahallaning «Shayxi»“).

Tushum kelishigi „haqida“ ko‘makchisi bilan ma’nodoshlik hosil qilgan: Bilmadim... Qabriston darvozasi oldida, bir tomonda tilovat, bir tomonda alla yangrayotgan darvoza oldida turib shularni/shular haqida o‘yladim-u, g‘alati bo‘lib ketdim. („Alla“).

Jo‘nalish kelishigi

Jo‘nalish kelishigi ayrim hollarda kelishik va ko‘makchilar bilan sinonim bo‘lib kelishi mumkin: –To‘g‘ri, dadam hammamizga (hammamiz uchun) baravar bosh-oyoq kiyim qilib berolmaydi. („Opamni topib oldim“); – Hoy piyonista, ertalabdan zahringga barmatuxa ichgandan ko‘ra bolangga (bolang uchun) ikki paket sut obersang bo‘lmaydimi?; – Arzimagan narsalarga/narsalar uchun bunaqa tajanglik qilaversang, nevrosteniya bo‘lib qolasan. („Imon“) — Asqar akam menga/men uchun boshqasini olib beradilar; Keyin bolalarga/bolalar uchun supaga joy solib berishdi. („Mening Acha xolam“) – **uchun** ko‘makchisi bilan.

Valining do‘ppisi birpasda shirinlikka/shirinlik bilan to‘lib chiqardi.(„O‘ris bolaning oyisi“) – **bilan** ko‘makchisi bilan.

Faqat yo‘lakning ikki chetida saf tortgan mirzateraklar qabr ustiga bosh eggan farzandlardek onaga/uchun orom tilab, alla aytadi. (Tasalli);

Ushbu gapda „Onaga“ so‘zidagi -ga kelishik qo‘shimchasi o‘rniga „uchun“ ko‘makchisi bilan almashtirib ishlatish mumkin. Lekin gapning ma‘nosi biroz o‘zgaradi-yu, umumiy mazmun saqlanib qoladi.

-ga kelishik qo‘shimchasi bilan: Faqat yo‘lakning ikki chetida saf tortgan mirzateraklar qabr ustiga bosh eggan farzandlardek onaga orom tilab, alla aytadi. **„Uchun“ ko‘makchisi bilan:** Faqat yo‘lakning ikki chetida saf tortgan mirzateraklar qabr ustiga bosh eggan farzandlardek ona uchun orom tilab, alla aytadi. **Ma‘no farqi:** Asl variantda mirzateraklar onaning o‘ziga orom tilaydi, unga murojaat qiladi. „Uchun“ ko‘makchisi bilan esa mirzateraklar onaning orom olishi uchun, uning manfaatini ko‘zlab alla aytadi. Ikkala variant ham grammatik jihatdan to‘g‘ri va mazmunan o‘rinli hisoblanadi.

Subyektiv baho shakllari

Hozirgi o‘zbek tilida -gina, -kina, -qina, -cha, -choq, -chak, -chiq, -ka, -ak, -loq, -boy, -bib, -qul, -oy, -xon, -jon, -bonu va shu kabi affiks va affiksoidlar so‘zlovchining obyektiv borliqqa o‘z nutqiga bo‘lgan modal munosabatini bildirib keluvchi subyektiv baho shakllari hisoblanib, bu shakllar sevish, erkalash, kuchaytirish, kamsitish kabi kabi ma‘nolarda qo‘llaniladi va ulardan ayrimlarini quyidagi misollardan ko‘rishimiz mumkin.

Bu qizning falsafa fakultetida o‘qiyotganini eshitgandim, mahalladagi eng „modniy“ qizlardan ekanini, jinsi shim kiyib yurishini bilardim-u, kechagina ko‘chada cherta o‘ynab yurgan qizaloqdan bunchalik ilmoqli savol kutmagan edim. (Sovchilar); Qo‘lida hassa, sigirning butun shoxiga tuguncha ilib qo‘yilgan. (Ermon buvaning tilagi); Sartarosh qutichadan yaltiroq mashinasini oldi. (Sovchilar“)

Ushbu gaplarda -loq va -cha qo‘shimchalari shaxs va narsa otlariga qo‘shilib, ularni **kichraytirish** ma‘nosida ifodalab kelgan.

– Voy, o‘zimning toychoq o‘g‘limdan aylanay! („Toy“)

Ushbu she‘riy parchadagi toychoq so‘zi metaforik qo‘llanish sanalib, shaxsga nisbatan murojaatni anglatgan. Bu o‘rinda -choq affiksi orqali **erkalash, suyish** ma‘nolari ifodalanib, nutq subyektiv ijobiy baho munosabati hosil qilingan;

– Murodjon akam mashina yuboraman, deb edilar. („Oy quyoshdan nur oladi“). „Murodjon“ so‘ziga -jon qo‘shimchasi qo‘shilgan va bu qo‘shimchani so‘zga qo‘shilishi qolipli emas, ya‘ni so‘z boshiga ham oxiriga ham qo‘shilib kela oladi. Ayniqsa, atoqli otlarga qo‘shilganda ikki xil ma‘noda keladi. Agar -jon qo‘shimchasi atoqli ot oldidan ishlatilsa yalinish, iltimos, biror fikrini qat‘iy o‘tkazish kabi ma‘nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Lekin ushbu gapda **erkalash** ma‘nosini ifodalab kelgan.

Xulosa qilganda, O‘tkir Hoshimovning „Dunyoning ishlari“ asari o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan asar hisoblanib, unda tilning soddaligi, xalqchilligi va obrazlarning yorqinligi alohida ajralib turadi. Yozuvchi ushbu qissasida ko‘plik va kelishik qo‘shimchalaridan foydalanish orqali o‘z hayotini va turli xil qiyinchiliklarga duch kelganligini, ayniqsa, onasini, nafaqat o‘z onajonisini, balki jamiyatdagi barcha onalar haqida ijod qilgan. Shuningdek, asarda kelishiklar orqali obrazlarning xarakteri, ichki dunyosi va boshqalar bilan bog‘liqligi, ko‘plik

shakllari orqali obrazlarning jamiyatdagi o'rnini va ahamiyati, muallifning obrazlarga munosabatini ifodalashda ushbu shakllar muhim ahamiyat kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdumalikov F. „O‘tkir Hoshimovning „Dunyoning ishlari“ asari uslubiy yondashuvlar talqinida“. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2024.
2. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. Toshkent: Global Books, 2021.
3. Jiyanova N. O‘zbek tilining amaliy uslubiyati. Toshkent: «Metodist nashriyoti». 2024, 212-b.
4. „O‘zbek tilining amaliy uslubiyati“ moduli bo‘yicha uslubiy majmua, Toshkent: 2022, 118-b.
5. Sayfullayeva R, Mengliyev B, Raupova L, Qurbonova M, Abuzalova M, Yo‘ldosheva D. Hozirgi o‘zbek tili. Toshkent:«Zebo Print», 2021. 219-b.
6. Sayfullayeva R, Mengliyev B, Raupova L, Qurbonova M, Abuzalova M, Yo‘ldosheva D. Hozirgi o‘zbek tili. Toshkent: «Tafakkur avlodi», 2023. 288-b.
7. Taxirov Z. O‘zbek tilining amaliy uslubiyati. Toshkent: «Tafakkur avlodi», 2021, 122-b.